



## MUALLIM QADRINI ULUG'LAGAN SHOIR!

*Yo'ldosheva Farangiz Sayfiddin qizi  
Toshkent davlat transport universiteti  
Yurisprudensiya (xalqaro transport huquqi) 2-bosqich talabasi  
[yoldoshevafarangiz311@gmail.com](mailto:yoldoshevafarangiz311@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada so'z san'ati ustasi, zabardast dramaturg, O'zbekiston xalq shoiri Maqsud Shayxzodaning "Muallim" she'rida ustozlarga berilgan nafis ta'riflar, ularning hayotimizda tutgan o'rni naqadar muhim ekanligini shoir o'z she'rida juda ajoyib tarzda tasvirlab beradi.

**Kalit so'zlar:** muallim, ijod, kitob, ustoz, daftar, ixlos.

### A POET WHO GLORIFIED THE VALUE OF THE TEACHER!

Yoldosheva Farangiz Sayfiddinovna  
Tashkent state transport university  
Jurisprudence (international transport law) 2nd stage student  
[yoldoshevafarangiz311@gmail.com](mailto:yoldoshevafarangiz311@gmail.com)

**Abstract.** In three articles, the master of the art of words, the great playwright, the national poet of Uzbekistan Maqsud Shaykhzoda's poem "Teacher", the elegant definitions given to the teachers, how important the role of law in our life is criticized by the poet in his poem. describes it perfectly.

**Key words:** teacher, creativity, book, teacher, notebook, sincerity.

### ПОЭТ, ВОСПЕВШИЙ ЦЕННОСТЬ УЧИТЕЛЯ!

Юлдошева Фарангиз Сайфиддиновна  
ТАШКЕНТСКАЯ ОБЛАСТЬ ТРАНСПОРТНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ  
Юриспруденция (международное транспортное право) студент 2 ступени  
[yoldoshivafarangiz311@gmail.com](mailto:yoldoshivafarangiz311@gmail.com)

**Абстрактный.** В трёх статьях мастер искусства слова, великий драматург, народный поэт Узбекистана Максуд Шайхзода поэма «Учитель», изящные определения, данные учителям, как важна роль права в нашей жизни, критикуется поэтом в своем стихотворении прекрасно это описывает.



**Ключевые слова:** учитель, творчество, книга, учитель, тетрадь, искренность.

Muallim! Bu so'zni eshitar ekansiz hammaning qalbini bir ajib bolalik hislari egallaydi. Bolalikingiz go'zal qishlog'ingiz ko'chalarini, ajib daraxtlarda osilgan belanchaklarning go'zal tasviri va albatta ilm dargohi bo'lган, sinfdoshlarining bilan yanada zavqli bo'lган suyukli maktabingiz. Darhaqiqat, insonning hayotda o'z o'rnini topishi uchun balki asl inson bo'lib shakllanishida ham ustoz atalmish buyuk zotning hissasi beqiyos. Shoирning muallimlarga atalgan ushbu misralari kishini ta'sirlantiradi.

Yashasam yuz ham chiqmaydi esdan,

Menga ilk alifni o'rgatgan ustoz.

Kechirdim men yuzlab kitobni ko'zdan,

Birinchi daftarga men qo'ygan ixlos.

Shoir ushbu she'rda yillar o'tib ketsa ham esdan chiqmaydigan onlar hisoblangan qo'lingizga ilk bor qalamni tutgan birinchi ustozini eslashini aytadi. Oradan shuncha yillar o'tib ketsa ham inson bilimi o'sishi, yangi-yangi bilimlarni egallashi mumkin ammo ilk bor qo'lingizga qalam tutgan inson sizning hech qachon esingizdan chiqmasligini aytgan. Darhaqiqat, g'azal mulkining sulton Mir Alisher Navoiy:

Kim senga bir harf o'qitmish ranj ila,

Aylamat bo'lmas ado oning haqqin yuz ganj ila.

deya ta'rif etgan. Hattoki Navoiy zamonlarida ham turli xildagi urushlar, qo'zg'olonlar, nohaqliklar bo'lib o'tgan. Ammo Navoiy bobomizning ham o'zi ustozlardan ta'lim olgan, ularni ulug'lagan. Vaqt kelganida o'zi ham bir-b iridan iste'dodli va iqtidorli shogirdlariga bilim berib, ustozlik qilgan. Ustozning martabasi o'sha zamonlarda ham baland bo'lgan.

Soyga tushib cho'milgan qizday,

Yaltiraydi chinorning sochi.

Bog'chalarda vizillagan yel,

Avj ko'tarar go'yo bir naychi.

Ushbu jumlalarni tasvirlar ekan shoир nafaqat muallimning ulug'ligini balki tabiatni ham e'tibordan chetda qoldirmagan. Chinor daraxti barglarining billurdek tovlanishiga qarata, shoир suvdan endigina cho'milib chiqqan qizning sochlariiga qiyos qilgan. Chinor daraxtining tunda raqsga tushib shivir-shivir ovoz chiqarishini shoир ajib nay sadosiga o'xshatadi.



Bulut ochdi ko'kning ruxsorin,  
Qosh qorayib ketgandi qunduz.  
Sekin imlab miltirar edi,  
Onda-sonda bir-ikki yulduz.

Kunduz o'z o'rnini tunga bo'shatib berayotgan chog'ini va osmonni yulduzlar galasi qamrab olishi hodisasini go'zal tarzda ifodalagan. Albatta, tunda yulduzlardanda chiroyliroq tasvir bo'lmasa kerak tomosha qilish va zavq olish uchun.

Kirar edi ko'kimtir tusga,  
Chamandagi ol-alvon ranglar.  
Daradagi buloq singari,  
Pichirlardi daraxtda burglar.

Tabiat yaratuvchining jamiyki dunyo mavjudotlariga taqdim etgan eng oliy ne'mati ekanligi shubhasizdir.

Badiiy so'z san'atining badiiy-estetik tamoyillari bilan ijtimoiy hayot munosabatlari miqyosini belgilashda ikkinchi muhim uzviy jihatni e'tibordan soqit qilmaslik lozim. Gap shundaki, badiiy-estetik qonuniyatlar jamiyat hayotining turli ko'rinishlariga to'lasincha suyanib yashamaydi, hatto ular jamiyat taqozo etgan ijtimoiy tizimda bir qism ham bo'lmasligi mumkin, ya'ni ular muayyan badiiy obraz namoyon etadigan badiiy-estetik va g'oyaviy xususiyatlar mohiyatini ifodalagani sababligina ijtimoiy jabhalar bilan aloqaga kirishadi[3] va tegishli o'rnarda ijtimoiy hayot negiziga daxldor estetik elementlardan oziqlanish hamda o'sha elementlar orqali muhim psixologik taranglik yaratishga moyil bo'lishadi, psixologik taranglik esa, pafosni kuchaytirish bilan birga, hayotiy va badiiy haqiqat uzviyligini ta'minlaydi.

Adib estetik ideali, badiiy mahorati va individual uslubi bilan bir qatorda, aqlu idrok va tafakkur imkoniyatlarini doimiy ravishda uyg'un qo'llash, badiiy did va intellektual saviyani muntazam o'stira borish orqali ham shakllanayotgani kuzatiladi. Adib turli falsafiy-ijtimoiy, badiiy-estetik va ijtimoiy kategoriyalarni o'rganish-talqin qilish natijasida olam va odam birdamligining dialektik asoslarini anglaydi, teran tahlil va tavsif yordamida ro'yobga chiqarilgan adabiy asos bilan falsafiy asos orasida estetik mutanosiblik o'rnatadi, ehtiroslari oqimini tafakkurida sodir bo'ladigan g'alayonlar bilan uyg'unlashtirib yuboradi, muhimi, e'tiqodi butun chinakam san'atkorning missiyasini shifokor burchiga o'xshatadi, zero yozuvchi insonni, g'oyaviy qarashlaridan kelib chiqib emas, avvalo, ezgu insonparvarlik g'oyalaridan kelib chiqib o'rganishi, tadqiq etishi, uning dardlarini baham ko'rishi



kerak, degan nuqtai nazarni ilgari suradi, ayni paytda, bu nuqtai nazari, estetik ideali va konsepsiyasi bilan qo'shiladi.<sup>1</sup>

Tabiat va inson uyg'unligi qalbingizga qay tarzda tarbiyalashingizga haqiqiy mustahkam ustun bo'la oladi. Ustoz bu yo'nalishni sizga belgilab beruvchi umr muallimidir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. <https://malumot.ru/estetik-ideal-va-badiiy-g%CAB%BBoya>
2. Turkiy adabiyotlar. M.Shayxzoda 16 jild. 2021y.
3. <https://lib.cspu.uz/index.php?newsid=485>

<sup>1</sup> <https://malumot.ru/estetik-ideal-va-badiiy-g%CAB%BBoya>